

20-May, 2025-yil

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI MA’NAVIY-AXLOQIY
QIYOFASI VA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI**

*IIV Akademiyasi 331-guruh kursanti
Mo‘minov Javohirbek Sodiqjon o‘g‘li*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining ayrim xodimlari axloqiy va huquqiy madaniyati yetishmasligi natijasida sodir etilayotgan huquqbazarliklar va jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan omillar, sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar va bunday holatlarni oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik chora-tadbirlar hamda xodimlarda axloqiy va huquqiy madaniyatni shakllantirishda psixologik omillarning o‘rni haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *IIO xodimi, axloqiy qadriyat, axloqiy madaniyat, huquqiy madaniyat, axloq kodeksi, ijtimoiy omillar, ma’naviy qiyofa, huquqiy savodxonlik.*

Annotation: *In this article, the factors that contribute to the commission of offenses and crimes by certain employees of law enforcement agencies due to their lack of moral and legal culture are discussed. It also covers the conditions that allow such actions to take place, preventive measures aimed at preventing these situations, and the role of psychological factors in shaping the moral and legal culture of employees.*

Key words: *MIA officer, moral value, moral culture, legal culture, code of ethics, social factors, spiritual image, legal literacy.*

Dunyoda huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning kompleks tizimi doirasidagi ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari oldida murakkab vazifalar mavjud va ularning muvaffaqiyatli yechimi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Ayniqsa bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan axloqiy va huquqiy madaniyati darajasi yetishmasligi natijasida ular tomonidan huquqbazarlik va jinoyatlarning sodir etilishi jiddiy muammodir. Bugungi kundagi chuqur ildiz otgan korruption holatlar, xizmat mavqeini suiste’mol qilish, Ichki ishlar organlari tizimiga dog‘ tushiruvchi salbiy harakatlarni sodir etayotgan xodimlar ham uchrab turibdi. Eng muhim vazifalardan biri kadrlar tarkibining axloqi, tarbiyasi, ma’naviyati hamda huquqiy ong va madaniyati, shuningdek, xodimning shaxsiy xususiyatlaridir. Shu o‘rinda, huquqni muhofaza qilish organlarining sifatli faoliyati uchun mustaqil, ma’suliyatli, shuningdek, axloqiy sohada umuminsoniy qadriyatlarga ega, vakolatli va raqobatbardosh bo‘lgan, har tamonlama yetuk mutaxassislarga ehtiyoj ortadi. Shu bois, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun yangi usul va vositalarni izlab topish zarurati shubhasizdir.

20-May, 2025-yil

Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir talablar majmuini, xamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopolikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi. Axloq talablari kishilarning fe'l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalarining yig‘indisi sifatida gavdalananadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo‘lgan munosabatda axloq belgilari namoyon bo‘ladi. Inson xatti-harakati va xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilari mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida axloqning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy madaniyat esa, insonlarning axloq-odob qoidalarini bilgan holda ularga rioya qilish jamiyatdagi o‘rnatilgan ijtimoiy me’yorlarga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Axloqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi insonlarning axloqiy qadriyatlari, normativlari va odob-axloq qonuniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon ko‘p jihatdan ta’lim, oila, an’analor va madaniyat bilan bog‘liq. Shuningdek, axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida bir qator psixologik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillar insonning shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda ta’sir ko‘rsatadi. Quyida asosiy psixologik omillar keltirilgan:



✓ **Shaxsiy motivatsiya**

Insonlarning huquqiy madaniyatga bo‘lgan munosabatlari ko‘pincha ularning shaxsiy motivatsiyasi bilan bog‘liq. O‘z huquqlarini himoya qilish yoki ijtimoiy adolatni ta’minlashga bo‘lgan intilish, huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.

20-May, 2025-yil

✓ Axloqiy qadriyatlar

Shaxsning axloqiy qadriyatlari, ya’ni adolat, tenglik va hurmat, huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Agar insonlar axloqiy qadriyatlarni yuqori baholasa, qonunlarga bo‘lgan munosabatlari ham ijobjiy bo‘ladi.

✓ Empatiya (tushunish) va rahm-shafqat

Empatiya va boshqalarga nisbatan rahm-shafqat hissi, huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhimdir. Boshqalarning huquqlari va burchlarini tushunish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga yordam beradi.

✓ Ijtimoiy ta’sir

Ijtimoiy muhit, do’starlar, oila va jamoa a’zolari orqali huquqiy xulq-atvor shakllanadi. Odamlar o’zlarining ijtimoiy guruhlarida qanday axloqiy va huquqiy normalarni qabul qilishlarini kuzatib, ularga amal qilishga intilishadi.

✓ O’rganish va tajriba

Odamlar o’z tajribalari va boshqalardan o’rganish orqali huquqiy masalalarni tushunadilar. Huquqiy dilemmalarga duch kelgan paytda, qiyinchiliklardan o’rganish, huquqiy madaniyatni mustahkamlashga yordam beradi.

✓ O’z-o’zini baholash

O’z-o’zini baholash darajasi shaxsning huquqiy xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. O’z huquqlarini bilish va ularni himoya qilishga qodir bo‘lgan insonlar, huquqiy madaniyatni rivojlanirishda faol bo‘lishadi.

✓ Qonunlarga hurmat

Qonunlarga hurmat qilish hissi, shaxsning huquqiy madaniyatini belgilaydi. Agar fuqarolar qonunlarni adolatlari deb hisoblasa, ularni hurmat qilish va ularga rioya qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Qonunlarni hurmat qilgan shaxs boshqalardan ham shuni talab qila oladi.

Huquqiy madaniyat - jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdar shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi hisoblanadi. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda psixologik omillar muhim rol o’ynaydi. Ular shaxsning huquqiy xulq-atvorini, qonunlarga bo‘lgan munosabatini va ijtimoiy adolatni anglashini belgilaydi. Huquqiy madaniyatni rivojlanirish uchun, insonlarning psixologik holati, motivatsiyalari va ijtimoiy ta’sirlar e’tiborga olinishi lozim.

Ichki ishlar vazirligi tizimida xodimlarning axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Psixologik treninglar, bu asosan IIV Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamentining Psixologik markazlari va ularning hududlardagi Psixologik xizmat ko’rsatish guruhi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik treninglar orqali, stress va noqulay vaziyatlarda to‘g’ri qarorlar qabul qilish uchun psixologik tayyorgarlik va moslashuvchanlikni rivojlanirish o’rgatiladi. Bunda IIO xodimlariga 4 ta yo‘nalish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:

1) Psixologik targ‘ibot va tashviqot yo‘nalishida:

20-May, 2025-yil

- 2) Psixodiagnostika yo‘nalishida:
- 3) Psixokorreksiya yo‘nalishida:
- 4) Psixoprofilaktika yo‘nalishida ishlar amalga oshiriladi.

Xodimlar qonunchilik, sud amaliyoti va huquqiy me'yorlarni o‘rganishlari uchun ta’lim dasturlari taklif etiladi.

IIO xodimlarining faoliyatini nazorat qilish va baholash tizimlari joriy etiladi. Bu, ularning axloqiy va huquqiy me'yorlarga amal qilishini ta'minlaydi. Nazorat asosan yuqori turuvchi organ yoki bo‘lim tomonidan amalga oshiriladi. Bunday holatda ham xodimlar doimiy sergaklik va mas’uliyat hissini yodidan chiqarmaydilar.

IIO xodimlarining axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun ko‘p qirrali yondashuv talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar birgalikda amalga oshirilganda, xodimlarning professional mahorati va mas’uliyat darajasini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Demak, IIO xodimlarining axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda bir qator ko‘plab huquqiy hamda psixologik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan ekan. Ushbu islohotlarda natijaga erishish uchun esa har bir xodimdan chuqur mas’uliyat, ijrochilik intizomiga rioya etish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini anglash hamda unga rioya etilishini talab qilish orqali xodimlarda axloqiy madaniyat shakllantirilar ekan. Men ham mazkur chora-tadbirlarga tayangan holda xodimlar ma’naviy qiyofasi, huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi **takliflarimni** ishlab chiqdim. Ular quyidagilar:

Huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish.

Haftaning bir kunida, masalan ma’rifat mashg‘ulotlaridan so‘ng jadval bo‘yicha xodimlarga qonunlar, qarorlar, farmonlarni taqsimlash va 5 minutlik mazmun-mohiyatini targ‘ibot qilish yuzasidan topshiriqlar berish.

Huquqiy savodxonlik musobaqalari.

Bunda, IIV sohasiga doir yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni yuzasidan IIB xodimlari o‘rtasida “Eng bilimdon yurist” musobaqalarini o‘tkazib borish.

OAV bilan hamkorlik qilish orqali.

IIO xodimlari jurnalist bilan huquqiy targ‘ibotlar yuzasidan chiqishlar qilishi, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirishga qaratilgan videoroliklar tayyorlashi.

JIEM departamenti bilan hamkorlik.

IIVning 2021-yil 21-oktyabrdagi 400-son buyrug‘i asosida korrupsiyaga moyil, huquqbazarlikka moyil “Xavf guruhi” ro‘yxatida turgan xodimlarni jazoni ijro etish tizimidagi kaloniyalariga olib borib, ularning sharoitlarini tanishtirish orqali psixologik ta’sir etish.

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan hamkorlik.

IIVning 2023-yil 10-apreldagi 185-sun buyrug‘iga asoslanib din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari bilan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishning aniq kalendar kunlarini belgilab olish.

20-May, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasini IIVning “IIO faoliyatini psixologikta’minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 2023-yil 10-apreldagi 185-son buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasini IIVning “IIO ma’naviy-ma’rifiy ishlari xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 21-oktabrdagi 400-son buyrug‘i.
3. R.X.Dushanon, Y.A.Farfiyev. (2014) “Kasbiy psixologiya” darslik. IIV Akademiyasi.
4. Xushvaqtov. T. (2020). "Ichki ishlar organlarida professional axloq va muomala madaniyati" – Toshkent, O‘zbekiston.
5. Sodiqov. M. (2021). “Stressni boshqarish va ichki ishlar organlaridagi professional faoliyat” – O‘zbekiston, Toshkent.

